



K.X. Annakulov,
“Oila va xotin-qizlar” ilmiy-tadqiqot instituti
loyihasi katta ilmiy xodimi

YOSHLARNING ERTA TURMUSH QURISHI BO‘YICHA OTA-ONALARNING MUNOSABATINI SOTSIOLOGIK BAHOLASH

Annotatsiya. Ushbu maqolada erta nikohni o‘rganishning dolzarbligi asoslangan bo‘lib, uning tadqiqot maqsadi va metodologiyasi keltirib berilgan. Shuningdek, yigit-qizlarning erta turmush qurishi bo‘yicha ota-onalarning munosabatini o‘rganish maqsadida o‘tkazilgan sotsiologik tadqiqot natijalari tahlil qilingan hamda erta tug‘uruq holatlarining oldini olish bo‘yicha ilmiy taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Аннотация. В данной статье обосновывается актуальность исследования ранних браков, представлены цель и методология исследования. Также проанализированы результаты социологического исследования, проведенного по изучению отношения родителей к ранним бракам юношей и девушек, разработаны научные предложения и рекомендации по профилактике ранних родов.

Annotation. This article substantiates the relevance of research of early marriages and presents the purpose and methodology of the research. The results of a sociological research conducted to study the attitude of parents towards early marriages of young men and young women were also analyzed, scientific proposals and recommendations for the prevention of early births were developed.

Tayanch so‘zlar: yigit-qizlar, ota-onalar, erta nikoh, sotsiologik tahlil, tadqiqot metodologiyasi.

Ключевые слова: юноши и девушки, родители, ранние браки, социологический анализ, методология исследования.

Keywords: young men and young women, parents, early marriages, sociological analysis, research methodology.

Kirish. Mamlakatimizda “Sog‘lom ona – sog‘lom bola” konsepsiyasi asosida aholining reproduktiv salomatligini mustahkamlash, joylarda erta nikoh va erta tug‘uruq holatlarining oldini olish bo‘yicha profilaktik chora-tadbirlarni kuchaytirish, “sog‘lom bolalikni ta‘minlash, bolalarni ijtimoiy himoya qilish tizimini takomillashtirish”¹, “erta va qarindoshlar o‘rtasidagi nikohlarning oldini olish, tug‘ishlar o‘rtasidagi maqbul oraliqqa rioya qilish, irsiy kasalliklar profilaktikasi dolzarbligini aholi o‘rtasida keng targ‘ib qilish”²ga e‘tibor qaratilmoqda. Erta nikoh va erta tug‘uruq holatlarining ko‘payib borayotgani unga ta‘sir etuvchi ijtimoiy omillarni aniqlash va tasniflash, salbiy demografik tendensiyalarni bartaraf etish mexanizmlari majmuyini ishlab chiqish hamda amalga oshirishni taqozo etadi.

Maqsad va uni asoslash. Tadqiqot maqsadi sotsiologik tadqiqotlar o‘tkazish orqali erta nikoh va erta tug‘uruqqa doir ishonchli ma‘lumotlarni to‘plash va tahlil qilish, erta nikoh va erta tug‘uruq holatlarini bartaraf etish bo‘yicha ilmiy taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Erta nikoh va erta tug‘uruq holatlarining sabablari, omillari va oqibatlarini o‘rganish bo‘yicha sotsiologik tadqiqotlar Buxoro, Qashqadaryo, Namangan, Surxondaryo, Samarqand va Sirdaryo viloyatlarida o‘tkazildi.

Tadqiqot doirasidagi maqsadli guruhlarni o‘smir qizlarini erta turmushga bergan ota-onalar tashkil etdi.

Tadqiqot usullari:

– erta nikoh va erta tug‘uruq muammolari bo‘yicha adabiyotlar sharhi va tahlili;

– normativ-huquqiy hujjatlar va statistik tahlil;

– xorijiy tajribani umumlashtirish va tahlil;

– muammo bo‘yicha ota-onalar orasida o‘tkazilgan sotsiologik tadqiqot;

– xorijiy tajribani umumlashtirish va tahlil qilish.

Tadqiqotda farzandini erta turmushga bergan 200 nafar (har bir hududda 50 nafardan) ota-ona o‘rtasida sotsiologik so‘rov o‘tkazildi.

Ma‘lumotlar to‘plash: ma‘lumotlarni to‘plash jarayonida UNFPA tomonidan belgilangan barcha axloqiy normalar va standartlar tadqiqot faoliyatiga kiritildi. So‘rovnomada qamrab olinishi kerak bo‘lgan jabrdiyda, xo‘rlangan va huquqlari poymol qilingan qizlar himoyasi va shaxsiy ma‘lumotlarining sirliligini ta‘minlash maqsadida ma‘lumotlar to‘plashning barcha bosqichlarida ota-onalar hamda ularning farzandlaridan suhbatlar o‘tkazishdan avval kerakli davlat va jamoat tuzilmalari vakillari tomonidan ularning xabardor qilingani hamda roziligi haqida imzolar olindi.

¹ Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2023 йил 11 сентябрдаги “Ўзбекистон – 2030” стратегияси тўғрисида”ги ПФ-158-сон Фармониغا 1-илова // Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 12.09.2023 й., 06/23/158/0694-сон.

² Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2023 йил 11 сентябрдаги “Ўзбекистон – 2030” стратегиясини 2023 йилда сифатли ва ўз вақтида амалга ошириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-300-сон [қарорига](#) 1-илова // Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 12.09.2023 й., 07/23/300/0693-сон.

Erta nikoh va erta tug‘uruq holatlarining sabablari, omillari va oqibatlarini o‘rganish bo‘yicha sotsiologik tadqiqotlar Buxoro, Qashqadaryo, Namangan, Surxondaryo, Samarqand va Sirdaryo viloyatlarida o‘tkazildi.

So‘rovnomalar o‘tkazish jarayonida Oila va xotin-qizlar qo‘mitasi, Sog‘liqni saqlash vazirligining hududiy bo‘linmalari vakillari so‘rovnoma o‘tkazuvchiga birlashtirilib, o‘smir qizlar va ularning ota-onalari o‘rtasida o‘tkazilgan sotsiologik so‘rovga mahalladagi xotin-qizlar faoli hamrohlik qildi.

So‘rovnomalar o‘tkazish jarayonida Oila va xotin-qizlar qo‘mitasi, Sog‘liqni saqlash vazirligining hududiy bo‘linmalari vakillari so‘rovnoma o‘tkazuvchiga birlashtirilib, o‘smir qizlar va ularning ota-onalari o‘rtasida o‘tkazilgan sotsiologik so‘rovga mahalladagi xotin-qizlar faoli hamrohlik qildi.

Sotsiologik tadqiqot natijalari. Yigit-qizlarning erta turmush qurishi yuzasidan ota-onalarning munosabatini o‘rganish maqsadida Buxoro, Qashqadaryo, Namangan, Surxondaryo, Samarqand va Sirdaryo viloyatlarida sotsiologik tadqiqot o‘tkazildi.

Tadqiqotda ishtirok etgan ota-onalarning 7,1 foizida – 1 nafar, 31 foizida – 2 nafar, 52,4 foizida – 3 nafar farzandi bor.

Birinchi farzandi tug‘ilganida 23,9 foiz ota-onalar 18 yoshda, 23 foizi 19 yoshda, 12,9 foizi 17 yoshda, 2,9 foizi esa 16 yoshda bo‘lgan.

Ota-onalarning birinchi o‘g‘il farzandi 19–20 yoshlarida (32,7%), to‘ng‘ich qiz farzandi esa 17 yoshda (55,3%) turmush qurgan.

Bugungi kunda o‘zbekona andisha va boshqa holatlar sababli ko‘pgina ota-onalar farzandlari bilan oilaviy masalalarni gaplashishga yetarli e‘tibor qaratmaydi. Ammo yoshlarni oila hayotiga tayyorlashda ota-onaning o‘rni, maslahati va tushuntirishlari katta rol o‘ynaydi.

Qizini turmushga berayotganida ota-onalar yigitning ma‘lumotiga, kasb-hunariga (39,2%), oilasining iqtisodiy darajasi, mavqeyiga (14,8%), farzandining xohish-istagiga (14,4%) va yigitning ijtimoiy kelib chiqishiga (13,9%) e‘tibor qaratishgan.

So‘rovda ishtirok etgan ota-onalarning 29,1 foizi quda tomonning iqtisodiy va lavozim mavqeyi, 27,8 foizi zo‘rlash holatlari bo‘lganida, 24,1 foizi sevgi-muhabbat, 19 foizi moddiy farovonlik va manfaatdorlik bo‘lganida erta nikohga rozilik berishini bildirgan.

Ota-onalarning farzandini erta nikohga kirishishiga undashdan asosiy maqsadi farzandlarini tezroq oilali qilish istagidir (57,4%). Shuningdek, ota-onalarning 30,1 foizi farzandlari uchun kelajakda moddiy tomondan farovon hayot, 12,4 foizi esa diniy qarashlar sabab erta nikohga undashini ta‘kidladilar.

Ota-onalarning 56,1 foizi o‘g‘il, 70,7 foizi esa qiz bolalarning 18 yoshdan nikohni rasmiylashtirishi mumkinligini biladi. Ko‘rinib turibdiki, ota-onalar nikoh yoshi haqida to‘liq tushunchaga ega emas.

Ota-onalar farzandlarining kim bilan turmush qurishi to‘g‘risidagi yakuniy qarorni turmush qurayotgan shaxsning o‘zi (42,1%) qabul qilish kerak, deb hisoblaydi. Ammo tadqiqotda yakuniy qaror ota-ona tomonidan qabul qilinishi lozim degan javob ulushi ham salmoqli (40,2%).

Ota-onalardan yoshlarning erta turmush qurishining sabablari haqida so‘ralganda quyidagicha javob olindi:

- sevgi-muhabbat – 41,1%;
- ota-onasi va yaqinlarining maslahatiga ko‘ra – 21,5%;
- homilador bo‘lib qolish oqibatida – 15,8%;
- ota-onasi va yaqinlarining talabiga ko‘ra – 10,5%;
- yaqin odam bilan turmush qurish imkonining mavjudligi sababli – 6,2%.


Erta nikoh holati bo'yicha aholining huquqiy madaniyati va savodxonligi ham o'rganildi. Zero, erta nikoh va erta tug'ruq qonunchilikka zid hisoblanadi. O'tkazilgan so'rov ota-onalarning 75,4 foizi qonunchilikka zid ekanligini bilishini ko'rsatdi. 9,4 foiz ota-onalar esa bu holatni qonunga zid emas, deb hisoblashadi.

Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasida Nikoh yoshi to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzganlik uchun 2013-yil 20-martdan e'tiboran ma'muriy va jinoiy javobgarlik o'rnatilgan bo'lib, bu javobgarlik bo'yicha aholining savodxonlik darajasi tahlil qilingan. Jumladan, erta nikohga berish va uylantirish uchun qonunchilikda javobgarlik borligini 61,4 foiz ota-onalar biladi, 32,4 foizi bilmaydi, 6,3 foiz esa ota-onalar bunga javobgarlik yo'q, deb hisoblaydi.

Shuningdek, ota-onalar va erta nikoh ishtirokchilarining nikohni rasmiylashtirish tartibiga oid qonunchilik talablarini bilmasliklari ham ko'zga tashlanmoqda. Ota-onalarning 78,0 foizi diniy marosim o'tkazish uchun FHDYdan ma'lumotnoma talab qilinishini biladi, 19,6 foizi bilmaydi. 2,4 foiz esa ota-onalar diniy marosim o'tkazish uchun birorta hujjat talab etilmaydi, deb hisoblaydi. Qashqadaryo viloyatida bu javob 6,0 foizni tashkil etdi.

Ota-onalarning 35,9 foizi erta nikoh qurganlar va ularning ota-onalar jarima to'laganligi haqida eshitgan, 64,1 foizi esa bundan mutlaqo bexabar. Ayniqsa, Toshkent shahri (88%) va Samarqand viloyatida (71,4%) bu ko'rsatkich yuqori.

Erta nikoh va erta tug'uruq qator salbiy oqibatlariga olib kelishi ko'pchilikka ayon. Ota-ona yosh qizning erta yoshda tug'ishi salomatligiga zarar keltirishi (26,9%), nogiron farzandlar tug'ilishi (19,6%), nikohning bekor bo'lishi (18,5%), kelajak rejalari amalga oshmay qolishi (18,5%) mumkin, deb hisoblaydi (1-rasm).




1-rasm. Erta nikohning salbiy oqibatlari (jamiga nisbatan foizda)³

So'rovda ishtirok etgan ota-onalarning 77,0 foizi farzandining nikohi FHDY organlarida rasmiylashtirilgani, 22,5 foizi farzandi sha'riy nikohda ekanini aytgan.

³ Mualliflar tomonidan o'tkazilgan sosiologik tadqiqot natijalari asosida tuzilgan.

Ota-onalardan ularning farzandlarining nikohi nima uchun FHDY organlarida rasmiylashtirilmagani sababi soʻralganida ularning asosiy qismi (76,4%) “turmush qurgan paytida qizim hali nikoh yoshiga yetmagan edi”, deb javob bergan (2-rasm).

Bundan shunday xulosa kelib chiqadiki, qonunchilikda belgilangan talablar va qoidalar haqida aholining aksariyat qismi xabardor, ammo amal qilmaydi.



2-rasm. Nikohning FHDY organlarida rasmiylashtirilmaslik sabablari (jamiga nisbatan foizda)⁴

Soʻrovlar shuni koʻrsatdiki, aksariyat hollarda ota-onalar qizlarining bokiraligini saqlashning oʻzi ularning reproduktiv salomatligi sohasidagi asosiy vazifa, deb hisoblaydilar. Oilada shakllangan mentalitet tufayli qizlarga deyarli hech qachon homiladorlikni rejalashtirish va tugʻish haqida gapirishmaydi.

Qiz bolaning tarbiyasida onaning oʻrni muhim sanaladi. Biroq jinsiy hayot, reproduktiv salomatlik borasida onaning farzandi bilan tushuntirish ishlari olib bormasligi yoki oʻzi ham yetarli bilimlarga ega emasligi kelgusida koʻplab muammolarni yuzaga keltirishi mumkin. Shu sababli taʼlim muassasalarida mazkur yoʻnalishda tarbiyaviy darslar olib borilishi katta ahamiyat kasb etadi. “Voyaga yetmagan farzandingizga istalmagan homiladorlikning oldini olish yuzasidan maʼlumot berish lozim deb hisoblaysizmi?” degan savolga respondentlarning 51,9 foizi – albatta, 14,5 foizi – shart emas, 27,0 foizi esa tibbiyot xodimlari maʼlumot bergani maʼqul, deb javob berdi.

Ota-onalarga erta nikoh va erta tugʻuruq masalasi boʻyicha dunyoqarashi hamda huquqiy va tibbiy madaniyatini oʻrganish maqsadida turli yoʻnalishdagi savollar berildi (1-jadval).

Koʻrinib turganidek, berilgan savollarga ota-onalar turlicha yondashganlar. Masalan, 58 foiz respondent qizlarning maktabda oʻgʻil bolalar bilan yonma-yon oʻtirish fikriga qoʻshilmasligi, 21 foizi esa qizlarning maktabda oʻgʻil bolalar bilan yonma-yon oʻtirishi toʻgʻri ekanligini bildirmoqda.

⁴ Mualliflar tomonidan oʻtkazilgan sosiologik tadqiqot natijalari asosida tuzilgan.

I-jadval

Siz quyidagi fikrlarga qo‘shilasizmi?⁵

№		To‘liq qo‘shilaman	Qisman qo‘shilaman	Qo‘shilmayman	Javob berishim qiyin
1.	Biz yashaydigan joyda 20 yoshdan oshgan qizning turmushga chiqishi qiyinlashadi	30,7	40,6	24,6	1,0
2.	Homiladorlikdan saqlash vositalari kelajakda bepushtlikka olib kelishi mumkin	30,7	34,1	18,0	17,1
3.	Ayol kishining oliy ma‘lumotli bo‘lishi shart emas	25,1	23,7	49,3	1,9
4.	Qizlarning maktabda o‘g‘il bolalar bilan yonmayon o‘tirishi to‘g‘ri emas	21,0	18,5	58,0	2,4
5.	Qarindoshlar o‘rtasida tuzilgan nikohlarda ko‘pincha nogiron farzandlar tug‘iladi	51,4	31,7	13,0	3,8
6.	Erta nikohlar aksariyat hollarda ota-onaning talabi bilan tuziladi	49,8	32,5	13,4	4,3
7.	Erta nikoh qonun bilan ta‘qiqlangan	66,5	9,5	4,0	20,0
8.	Nikoh qurishda diniy marosim o‘tkazishning o‘zi kifoya, FHDYda rasmiylashtirishga zarurat yo‘q	5,8	10,2	66,5	17,5

Achinarlisi shuki, ota-onalarning 25,1 foizi hanuz ayol kishining oliy ma‘lumot olishi shart emas deb hisoblasa, 30,7 foizi 20 yoshdan oshgan qizning o‘zi yashab turgan hududda turmushga chiqishi qiyinlashadi degan fikrda qolmoqda.

Ota-onalarning 51,4 foizi qarindoshlar o‘rtasida tuzilgan nikohlarda nogiron farzandlar tug‘ilishiga oid fikrga qo‘shiladi, 13 foizi esa bunday fikrda emas.

Ota-onalarning 66,5 foizi erta nikoh holatining qonun bilan taqiqlangani haqida xabardor va nikohning rasmiylashtirilishi shart ekanligini ta‘kidlaydi.

49,8 foiz ota-ona erta nikohlar aksariyat hollarda ota-onaning talabi bilan tuzulishini ta‘kidlasa, ularning 13,4 foizi mazkur fikrga qarshi ekanligini bildirib o‘tadi.

Yakuniy qism. Xulosa o‘rnida ta‘kidlab o‘tish kerakki, ota-onalarning tibbiy va huquqiy madaniyatini oshirish zarurati saqlanib qolmoqda. Hududiy xususiyatlarni inobatga olgan holda, zararli an‘ana va stereotiplardan ko‘ra qonun va huquq tartibot qoidalarining ustuvorligini targ‘ib qilish, qizlar va ayollarning ta‘lim olish imkoniyatlarini kengaytirish, aholi orasida ta‘lim olgan ayol nufuzini oshirib borish choralari ko‘rish lozim, jumladan:

1. Respondentlarning aksariyat qismi erta tug‘uruq holatiga salbiy munosabat bildirgan. O‘rta va keksa yoshdagi respondentlar yoshlarga qaraganda voyaga yetmagan onalikka ko‘proq moyil. Respondentlarning ta‘lim darajasi qanchalik yuqori bo‘lsa, ular voyaga yetmagan onalikka nisbatan kamroq toqat qiladi. Faqat farzandi bo‘lmagan va oilaviy ahvolini yolg‘izlik deb ta‘riflagan respondentlar orasida voyaga yetmagan onalikni ijtimoiy hodisa sifatida ijobiy baholash salbiylaridan ustunlik qildi.

⁵ Mualliflar tomonidan o‘tkazilgan sosiologik tadqiqot natijalari asosida tuzilgan.

Respondentlarning katta qismi voyaga yetmagan onalarga turmush o'rtoqlari (sheriklari) va ota-onalari yordam berishi kerak, deb hisoblaydi. Respondentlarning atigi 17 foizi yosh onalarga yordam berish bo'yicha maxsus xizmatga ehtiyoj mavjudligini biladi.

2. Aksariyat respondentlar farzand tug'ilishi uchun optimal yoshni 20–25 yosh deb hisoblagan. Respondent (uning turmush o'rtog'i) birinchi farzandining tug'ilishi paytida yoshi qancha katta bo'lsa, uning voyaga yetmagan onalikka nisbatan salbiy bahosi shunchalik yuqori bo'ladi. Respondentlar ko'pincha voyaga yetmagan onalikka salbiy munosabatni ijtimoiy hodisa ekani, yoshligida farzand ko'rishga hali erta ekanligi va voyaga yetmagan onaning farzandini to'g'ri tarbiyalay olmasligi bilan izohlaydi.

3. Respondentlarning yarmidan ko'pi (53%) so'nggi yillarda erta tug'uruqlar soni ortib borayotganiga, qariyb yarmi (49%) vaqt o'tishi bilan voyaga yetmagan onalarga nisbatan jamoatchilik fikri yumshoqroq bo'lib borayotganiga ishonadi.

4. Respondentlarning mutlaq ko'pchiligi voyaga yetmagan onalar va jamiyatning ushbu ijtimoiy hodisaga munosabatini baholashdan qat'i nazar, boshqalarning yordamiga muhtoj ekanligiga amin. Respondentlarning katta qismi voyaga yetmagan onalarga turmush o'rtoqlari (sheriklari) va ota-onalari yordam berishi kerak, deb hisoblaydi. Respondentlarning atigi 17 foizi yosh onalarga yordam berish bo'yicha maxsus xizmatga ehtiyoj mavjudligini biladi.

5. Respondentlarning aksariyati o'z oilasida voyaga yetmagan onaning paydo bo'lishi istiqbolini salbiy qabul qiladi, faqat 2 foizi bunday istiqbolga ijobiy munosabatda bo'lgan. Respondentning oilasida voyaga yetmagan onaning paydo bo'lishining maqsadga muvofiqlik darajasi uning ijtimoiy hodisa sifatida voyaga yetmagan onalikka bo'lgan munosabati va voyaga yetmagan onalikka berilgan ta'rifi bilan bevosita bog'liq.

Taklif va tavsiyalar:

– milliy qonunchilikda xalqaro normalar talablaridan kelib chiqqan holda, umumprinsipial holatlar o'rnatilganiga qaramasdan, konkret holatdagi munosabatlarni tartibga soluvchi normalar yetishmaydi. Jumladan, “erta nikoh” tushunchasi, zararli urf-odatlar, nikoh bilan bog'liq bo'lgan diniy marosim talablari kabi normalarni ishlab chiqishga ehtiyoj mavjud. Bunda xalqaro normalar talablari doirasida “bolalar nikohi”, “voyaga yetmaganlar va o'smirlar tug'urug'i” tushunchalarini “erta nikoh va erta tug'uruq” o'rniga kirgizish tavsiya etiladi. Zero, bu holatda qullikka tenglashtirilayotgan “bola huquqlari” tushunchasi yanada oydinlashgan, me'yoriy-huquqiy hujjatlarning xalqaro talablar doirasida “bola” deb hisoblanuvchi shaxslar va ular bilan nikoh munosabatlariga kirishayotgan shaxslarning toifalari ajratilgan bo'lar edi. Chunki “erta nikoh” tushunchasining yuridik ta'rifi bilan “bolalar nikohi” tushunchalarining yuridik ahamiyatligini e'tiborga olish lozim;

– jinoyat va fuqarolik qonunchiligini uyg'unlashtirish va jinoiy javobgarlikni ota-onalar va diniy marosimni amalga oshiruvchi shaxslarga qaratish. Bunda “Ma'muriy javobgarlik to'g'risida”gi Kodeksning 473-moddasi va Jinoyat Kodeksining 125¹-moddalaridagi ota-onalar, diniy marosimni o'tkazayotgan shaxslar uchun alohida javobgarlikni belgilash zarur. Ma'muriy jazo choralarini diniy marosim o'tkazuvchi shaxs va ota-onalar uchun olib tashlash, to'g'ridan to'g'ri jinoiy javobgarlikni qo'llash hamda sanksiyalarini kuchaytirish masalasini ko'rib chiqish lozim;

– qizlarni erta nikohdan himoyalash borasida amaldagi qonunchilikning samarali ijrosini ta'minlash maqsadida huquqni muhofaza qiluvchi organlar va sud organlarining malakasini oshirish;

– aksariyat erta turmush qurayotganlarni maktab yoshidaligini hisobga olgan holda maktab ma'naviyatchilari va psixologlari, uchastka nozirlari faoliyatiga tanqidiy yondashish. Maktablarning ma'naviyatchilari va psixologlari maktabdagi erta turmushga moyilligi bor o'quvchilar bilan yakka tartibda ishlashini tashkil qilish. Maktablarning ichki tartib-qoidalariga o'quvchilar tomonidan amal qilinishini qat'iy nazoratga olish;

– ota-onalar tomonidan voyaga yetmagan qizlarining erta turmushga chiqishga majbur qilinishi, qizlar qaror qabul qilishda cheklangan kuchga ega ekanligini inobatga olgan holda:

- erkak otalarni o'qitish. Otalar bolalar nikohining salbiy oqibatlari to'g'risida ma'lumot olganda, bu ularning qarashlarini o'zgartirishga, qizlarning huquqlari haqida gapirishga va boshqalarni ham shunga undashga ilhomlantirishi mumkin;

- ommaviy axborot vositalarida erta nikoh va erta tug'uruq holatlarining salbiy jihatlarini aks ettiruvchi roliklar ishlab chiqish hamda telekanallar, ijtimoiy tarmoqlar va veb-sahifalarda yoritish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. *Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2023 йил 11 сентябрдаги “Ўзбекистон – 2030” стратегияси тўғрисида”ги ПФ-158-сон Фармониغا 1-илова // Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 12.09.2023 й., 06/23/158/0694-сон.*
2. *Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2023 йил 11 сентябрдаги «Ўзбекистон – 2030» стратегиясини 2023 йилда сифатли ва ўз вақтида амалга ошириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-300-сон қарорига 1-илова // Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 12.09.2023 й. 07/23/300/0693-сон.*
3. *Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Сенати Кенгашининг 2020 йил 13 июлдаги “Эрта турмуш ва эрта туғруқ ҳолатлари ҳамда оилавий ажралишлар билан боғлиқ муаммоларни бартараф этиш чора-тадбирлари тўғрисида”ги КҚ-105-IV-сонли қарори.*
4. *Abduramanov X.X., Xonto'rayev B., Zokirov Sh. “Erta turmush va erta tug'uruq holatlari: muammo va yechimlar” (Matn): uslubiy qo'llanma. - Toshkent: “Mahalla va oila nashriyoti”, 2021. – 84 b.*
5. *Abdurmanov X.X., Sodiqova Sh.M. Abdusamatov X.U. Erta turmush barchaga tashvish (Matn): uslubiy qo'llanma. – Toshkent: “Mahalla va oila nashriyoti”, 2022. – 32 b.*
6. *Abdusamatov X., Alimjanova D., Dehqonov Sh. Erta turmush: yetti o'lchab, bir kesing... – Toshkent: “Mahalla va oila nashriyoti”, 2022. – 48 b.*
7. *Musurmanova O., Xoliqova M., Reproductiv salomatlik va jinsiy tarbiya – yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashning muhim omili. – Toshkent: O'zRFA “Fan” nashriyoti, 2021. – 68 b.*
8. *Эгамбердиева Н., Абдусаматов Х., Мажидова Д. Oilalar barqarorligiga mehnat migratsiyasining ta'siri. [Matn]: ilmiy-metodik q'llanma. – Toshkent: “Mahalla va oilanashriyoti”, 2023. – 152 b.*